# I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 19 548,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 7,7 % ga ko‘paydi.

YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo‘shgan hissasi 5,4 % ga yetdi.



**2026- yilning yanvar-mart oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot**



## Yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

| | Mlrd. so‘m | | O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| | 2025- yil | 2026- yil | |
| **I. YAHM** | **16 768,8** | **19 548,0** | **107,7** |
| shu jumladan: | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 16 254,1 | 18 991,9 | 107,5 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 514,7 | 556,1 | 111,8 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **16 254,1** | **18 991,9** | **107,5** |
| **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **2 541,7** | **3 080,0** | **104,8** |
| **Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **4 528,3** | **5 153,6** | **107,4** |
| sanoat | 3 307,6 | 3 802,2 | 107,4 |
| qurilish | 1 220,7 | 1 351,4 | 107,7 |
| **Xizmatlar** | **9 184,1** | **10 758,3** | **108,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 3 253,6 | 3 956,4 | 114,0 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 240,1 | 1 542,0 | 115,6 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 4 690,4 | 5 259,9 | 102,5 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 248,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

## Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 16,2 % ni, sanoat tarmog’i 27,1 % ni, qurilish 7,1 % ni va xizmatlar sohasi 56,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2025- yil* | *2026- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 96,9 | 97,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,1 | 2,8 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **15,6** | **16,2** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **27,8** | **27,1** |
| sanoat | 20,3 | 20,0 |
| qurilish | 7,5 | 7,1 |
| **xizmatlar** | **56,6** | **56,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish | 20,0 | 20,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 7,6 | 8,1 |
| bo‘yicha xizmatlar | 29,0 | 27,8 |

# Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*







Yalpi qo‘shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 104,8 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 16,2 %), sanoatda – 107,4 % (20,0 %), qurilishda – 107,7 % (7,1 %), xizmatlar sohasida – 108,3 % ni (56,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 114,0 % (20,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,6 % (8,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,5 % dan (27,8 %) iborat bo‘ldi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari**

*(o‘tgan yilga nisbatan % da)*

| 2025- yil | | 2026- yil |
|---|---|---|
| 5,4 % | YAHM | 7,7 % |
| 3,6 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 4,8 % |
| 5,7 % | Sanoat | 7,4 % |
| 3,5 % | Qurilish | 7,7 % |
| 6,0 % | Xizmatlar | 8,3 % |

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 0,7 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,4 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 1,3 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,6 f.p. (2025- yilning yanvar-martida salbiy – 0,3 f.p.) va xizmatlar sohasi – 4,6 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 3,1 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.)ni tashkil etdi.



**2026- yilning yanvar-martida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*



2026-yil yanvar-mart oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2025-yil yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 115,6 % va xizmatlar sohasida – 108,1 % qayd etildi.



## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilga nisbatan % da)*

| | 2025- y. | 2026- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 110,2 % | 108,3 % |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 114,6 % | 115,6 % |
| Sanoat | 107,8 % | 107,1 % |
| Qurilish | 105,6 % | 102,8 % |
| Xizmatlar | 110,4 % | 108,1 % |

2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 12 036,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 10 365,1 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 63,4 % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 63,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.



## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi
*(jamiga nisbatan % da)*



| | Hajmi, mlrd. so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2025- yil | 10 365,1 | 63,8 % |
| 2026- yil | 12 036,3 | 63,4 % |





## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichidir;

**Yalpi ishlab chiqarish (YAICH)** – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

**Aholi jon boshiga YAHM** – muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ)** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat byudjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**YAHM fizik hajm indeksi** – o‘tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o‘tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

**YAHM indeks-deflyatori** – hudud iqtisodiyotida narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.